

Toshkent farmasevtika institutida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e'loni

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki budget mab'lag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 563-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qarorda talabalar turar joylarini davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali barpo etish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.2024 yildagi "**Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan "**Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida**"gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Toshkent farmasevtika instituti qoshidagi akademik litseyi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi barpo etish loyihasi (*quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang*) ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.


Loyiha doirasida tadbirkorlik sub'ekti va Davlat budgeti mablag'ları hisobidan **720 o'rinni** talabalar turar joyi quriladi, Bunda, xususiy sherikka talabalar turar joylarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlari bo'yicha bir o'ringa to'g'ri keladigan qiymatning **50 foizi**, biroq bazaviy hisoblash miqdorining **100 baravaridan** ortiq bo'lmagan miqdorda subsidiya ajratiladi.

Loyiha doirasida xususiy sherik va budget mablag'ları hisobiga qurilgan talabalar turar joyi binosi **30 yildan** so'ng davlat sheri giga soz holda qaytariladi.

Xususiy sherik 30 yil davomida talabalarga yotoq joy xizmatlarini ko'rsatadi, talabalar turar joyini soz holda saqlash va sifatli xizmat ko'rsatish xususiy sherik xisobidan amalga oshiriladi.

Yotoq joy uchun talabalar tomonidan to'lanadigan to'lov miqdori davlat sheri giga soz holda kelishilgan holda o'rnatiladi.

Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari 41.3606599998864, 69.21341160963004



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo‘lgan taqdirda, 2025-yil 30-yanvarga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. Toshkent farmasevtika instituti:

100015, Toshkent shahri, Oybek ko‘chasi 45-uy.

Elektron pochta manzili: info@pharmi.uz

Telefon raqami: (+998 71) 256-45-04

2. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri Talabalar ko‘chasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08

**Toshkent farmasevtika instituti qoshidagi akademik litseyi hududida
davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyi binosini
loyihalashtirish, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish
va qaytarishni tashkil etish loyihasi to'g'risida**
MA'LUMOT

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Toshkent farmasevtika instituti qoshidagi akademik litseyi hududida davlat-xususiy sheriklik asosida 720 o'rinni talabalar turar joyi binosini loyihalash, qurish, jihozlash, foydalanish, xizmat ko'rsatish va qaytarishni tashkil etish.
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor:	Toshkent farmasevtika instituti “Z-P-A” oilaviy korxonasi
3.	Loyihaning faoliyat yo'nalishi	Toshkent farmasevtika instituti talabalari turar joy bilan ta'minlanadi.
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Toshkent shahar, Olmazor tumani Qoraqamish 2/5 17A uy, Toshkent farmasevtika instituti qoshidagi akademik litseyi hududi.
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	1 yil
6.	Loyihaning amal qilish muddati	30 yil
7.	Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	Talabalarga turar joyda yashagani uchun oyiga 375,0 ming so'm
8.	Loyihaning umumiyligini qiymati	58 949,5 mln so'm
9.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari	Toshkent farmasevtika instituti qoshidagi akademik litseyi hududidan 0,3 ga yer maydoni vaqtincha foydalanishga beriladi. Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarorining 1(b)-bandiga muvofiq, xususiy sherikka talabalar turar joyini qurish uchun loyiha bo'yicha bitta yotoq o'rni hisobida talab etiladigan mablag'ning 50 foizi, ya'ni 27,0 mlrd so'm miqdorda Davlat budjetidan subsidiya ajratiladi.